

FIDOYING BO'LGAYMIZ SENI, O'ZBEKISTON!



AGRONOM

GAZETA 1956 YILDAN
CHIQA BOSHLAGAN


19.10.2010 yil
№03-068 raqam bilan
ro'yxatga olingan

№ 2 (788) FEVRAL 2019 YIL

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI TALABA-YOSHLARI BILAN MA'NAVIY-MA'RIFIY VA TARBIYAVIY-PROFILAKTIK MULOQOT

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining maslahatchisi general-polkovnik Z.Almatov rahbarligidagi ishchi guruh a'zolari tomonidan Yoshlar ittifoqi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita hamkorligida 2018-2019 o'quv yili davomida OTMLar talabalari bilan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy-profilaktik uchrashuvlar o'tkazish belgilangan bo'lib, bugun Toshkent davlat agrar universiteti Madaniyat saroyida



O'zbekiston Respublikasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi halq artisti - Yodgor Sa'diyev va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining maslahatchisi general-polkovnik Z.Almatovning "Toshkent davlat agrar universiteti talaba-yoshlari bilan ma'naviy- ma'rifiy va tarbiyaviy-profilaktik muloqot" mavzusidagi davra suhbatini o'tkazildi.

Uchrashuvni universitet rektori, akademik B.Sulaymonov ochib berar ekan, bugungi kunda yoshlar manfaatlarini ximoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, orzu intilishlarining amalga oshishiga ko'maklashish, moddiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatish, ularni qiynayotgan muammolarni o'rganib tahlil qilish va yechimini topish, yoshlar bilan bog'liq jinoyatchilik va xuquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi chora-tadbirlar xukumatimiz va shahsan

muhtaram prezidentimizning doimiy diqqat markazidaligini alohida taqidlab o'tdi.

So'ngra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining maslahatchisi general-polkovnik Z.Almatov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatini o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azmu-shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun eng muhim masaladir" degan ezgu fikrlarini olg'a surgan holda, yoshlarni ayniqsa talaba-yoshlarni ona-Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, tinchlik-osoyishtalikni qadrlash va yurtimizni ximoya qilishga, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishga o'rgatish xozirgi zamon davr talabi ekanligini va yetishib kelayotgan kadrlar kelgusida yurtimiz kelajagini belgilab berishini inobatga olib, agrar universiteti yoshlariga katta umid bog'lashini aytib o'tdi. Bu so'zlar universitet talabalarida o'ziga bo'lgan ishonch va e'tiqodni yanada kuchaytirdi.

Muloqot davomida so'zga chiqqan - O'zbekiston Respublikasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi halq artisti - Yodgor Sa'diyevlar xizmat faoliyatlarida guvohi bo'lgan turli voqea xodisalarni namuna qilib keltirar ekanlar, yig'ilganlar bilan, birgina "Ommaviy madaniyat" ta'siri natijasida Yoshlar bilan bog'liq jinoyat va xuquqbuzarliklarning salbiy va dahshatli ta'sirlari xaqida o'z fikrlari va tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.

Universitetimiz talaba-yoshlari mehmonlarga qizg'in munozaralarga mavzu bo'la oladigan, savollar va takliflar berishar ekan, tashkil etilgan mana shunday uchrashuvlar uchun xukumatimiz va universitetimiz rahbariyatiga tashakkur bildirishdi hamda ushbu berilayotgan imkoniyatlar va e'tibordan unumli foydalangan xolda Yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilishga va'da berdilar.

Toshkent davlat agrar universiteti ma'naviyat bo'limi

ALISHER NAVOIY –AVLIYOLARNING AVLIYOSI, MUTAFAKKIRLARNING MUTAFAKKIRI SHOIRLARNING SULTONIDIR

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali tasir ko'rsatgan ulug' zotlardan biri bo'lmish bobomiz Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlari 1441-yil 9-fevralda Hirot shaxrida tavalud topganlar. Otalari G'iyosiddin Muhammad temuriylar saroyidagi amaldorlardan biri edi. Bobomiz Alisher 4-5 yoshlaridanoq Qosim Anvarning asarlarini, shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini berilib o'qigan. Yosh Alisher otasi G'iyosiddin kichkina bilan juda ko'p sherxonlik kechalarida ishtirok etgan. Ushbu kechalardan birida, yoshlik chog'larida bitgan bir bayt g'azallarini aytib, o'z davrining yetuk shoirlaridan biri bo'lgan Movlono Lutfiy e'tiborini qozondi.

*"Orazin yopg'och ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh"*

Lutfiyini hayratlantira olgan ushbu baytga u o'zining forsiy va turkiy tildagi o'n ikki ming bayt she'rlarini almashtirishgacha tayyor edi.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs. Millatimizning g'ururi, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasidir. Olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biror bir kishi yo'qki Navoiyni bilmasa, uni sevmasa asarlarini o'rganmasa, unga sadoqat bilan boqmasa. Ona tilimizga muhabbat, uning beqiyos boyligi, buyukligini anglash ham, yuragimizga, ongimizga va qon-qonimizga albatta Navoiy bobomiz asarlari bilan kirib keldi. Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, hayot mazmunini teran ifoda etgan shoir kamdan-kam topiladi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov, bobokalonimiz Alisher Navoiyga quyidagicha ta'rif berganlar "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir".

Bundan tashqari, Davlatshoh Samarqandiy "... Bu ulug' amir, dinu davlat homiysi, shariat hamda millatning pushti panohidir", Husayin Bayqaro "Aning nazmi vasfida til qosir va bayon o'jisturur", Abdurahmon Jomiy "... turkiy tilda hech kim Navoiydek ko'p va xo'p she'r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi", -deb Navoiyga o'z davrining yetuk namoyondalari ham ta'rif berishgan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan istiqloqlning dastlabki yillardanoq mutafakkir bobomizning boy manaviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishdek xayrli ishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida Navoiyning yigirma jildlik mukammal asarlar to'plami nashr etildi. Shular qatorida Navoiy viloyatiga, Toshkent shaxri va Respublikamiz turli hududlaridagi jamoat birlashmalariga, ko'chalarga, shuningdek, istirohat bog'lariga Navoiy nomi berildi. Bugungi kunda Oliy o'quv yurtlari iqtidorli talabalari uchun Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi ta'sis etilgan. Navoiy asarlari, faqat respublikamizda emas balki dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham chuqur o'rganilmoqda. Buning natijasini allomaning turli asarlari chet tillariga tarjima qilinib, sevib o'qilishidadir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng shoir tavallud topgan kunni keng nishonlash an'anaga aylandi va bu hozir ham yuksak darajada davometib kelmoqda.

Alisher Navoiy asarlarida bebaho bir meros yotadi desam mubolag'a bo'lmaydi. Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boqiyiligi, badiiy dahosi, zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxr bilan so'z yuritimiz. O'zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti bo'lmish I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat— Yengilmas kuch" asarida shunday deb yozadilar, "Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligini anglash tuyg'usi bizning ong-u shuurimizga, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz".

Biz Navoiy bobomiz asarlarini o'rganishdan, ularni nomlarini yanada ulug'lashdan hech qachon charchamaymiz, aksincha bobomizni yod olganimiz sari ruhan tetik, ma'naviy jihatdan boyib boraveramiz.

SAPAROV B.B.

"Gumanitar fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi,

ISROILOV S.U.

"Ipakchilik va tutchilik" fakulteti yetakchisi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR - ADOLATLI PODSHOX, ISTE'DODLI SHOIR

*“Bobur fe’li-sajiyasiga ko’ra
Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir!”*

(Eduard Xolden)

Ushbu iliq fikrlar hayot yo’li, amalga oshirgan islohotlari va bebaho adabiyot durdonalari bilan butun jahonga ma’lum-u mashhur buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur siymosiga qarata aytilgandir. U mumtoz adabiyotning yirik vakili: shoir; tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, Boburiylar sulolasi asoschisi, Temuriy shahzoda.

Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg’ona hukmdori Umarshayx Mirzoning farzandi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo Andijonda 1483-yili 14-fevralda tug’ilgan. Bobur barcha Temuriy shaxzodalar singari tarbiya topdi. Dovyurakli va jasurligi unga Bobur-sher laqabi berilishiga sabab bo’ldi. Haqiqatan tarixiy dalillar guvohlik berishicha bu buyuk shaxs uchun dovyuraklik, jasurlik va adolat peshalik sifatleri xos edi.

Taqdirning og’ir musibatlari va judoliklariga juda erta uchragan Bobur 12 yoshida valiahd sifatida taxtga o’tirdi. Hali yoshligiga qaramay onasi rahnamoligida davlatni boshqarayotgan Temuriy shaxzoda otasi yo’lidan borib mashhur so’fiy Xoja Ahror Valiyga ixlos qo’ydi va uning tariqati Bobur uchun umrining oxirigacha dasturul amal bo’lib xizmat qildi.

Boburning pirovard siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo’lgan Samarqandni egallash, mustahkamlash hamda Temuriylar saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Bu maslakni ro’yobga chiqarish maqsadida juda ko’p harakat qilgan, juda kuchli qarshiliklarga qaramasdan bunga qayta-qayta urinib ko’rgan. Alal oqibatda o’z vatanidan umid uzib Hindiston tomon yo’l oldi va u yerda 300 yil hukm surgan Boburiylar sulolasiga asos soldi. Temuriylarga xos bir ulug’ fazilat Bobur qalbida ham alangalanib turar edi, u qayerni egallamasin xoh qarshiliklarga uchrab, xoh osongina u yerlarda obodonchilik, yaratuvchilik ishlarini mavjlantirdi. Xususan, Kobuldagi “Bog’i shahraro”, “Bog’i Jahonoro”, “O’rtabog’”, “Bog’i vafu” va “Bog’i Bobur” kabi oromgohlar, shuningdek Hindistondagi Boburiylar sulolasi me’moriy yodgorliklari fikrimiz yaqqol dalilidir. Bobur o’zga ellarda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmdor sifatida faoliyat ko’rsatdi, uning manfaatlari yo’lida odilona va oqilona ish tutdi.

Bobur nafaqat bunyodkor, xalqparvar podshoh, balki iste’dodli shoir hamdir. O’zining guvohligiga ko’ra shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan: “Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim”, -deb yozadi. Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to’plana boshlanishi ham shu yillarga to’g’ri kelgan, jumaladan Binoiy, Abulbaraka va Bobur mushoirasi Samarqanddagi adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko’p vaqti jangu jadallarda o’tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg’in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab xatarli sharoitda qolgan chog’larda ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm san’at va ijod ahlini atrofiga to’plab, homiylik qilgan, ularni rag’batlantirgan.

Boburning san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarni jiddiy umumlashma darajasiga ko’tara oladi va natijada asrlarida olg’u surilgan g’oyalar umum insoniy qadriyatlar darajasiga ko’tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to’kilgan ona yurtini dildan qumsash uning tuprog’iga talpinish, g’ariblik azoblaridan o’tli hasrat yoru diyor sog’inchi va visol ilinji, taqdir zarbalari, turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy taxlil etiladi.

Shoh Boburdan bizga bebaho ma’naviy boylik me’ros bo’lib qoldi “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Volidiya” singari yorqin asarlar, “Xatti Boburiy”, shuningdek musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag’ishlangan risolalari shular jumlasidandir. Umrining oxiriga qadar adabiyot bilan mashhur bo’lib, umrining oxiriga qadar adabiyot bilan mashg’ul bo’lib oxiriga yillarda tez-tez xastaliklarga chalina boshlagach bir necha muddat oldin podsholikni Humoyinga tipshirgan Bobur 47 yoshida o’zi asos solgan Boburiylar sulolasi saltanati poytaxti Agrada vafot etdi va o’sha yerda dafn etildi, keyinchalik uning hoki vasiyatiga binoan Kobulga keltirilib Bog’i boburga qo’yildi. U umrining oxiriga qadar vatan sog’inchi bilan yashadi, ruxiyati va qalbi shariyatda tsokin topdi. Bobur O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng o’z yurtida qadr qimmat topdi. O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti farmoniga ko’ra 1993-yil “Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi” Andijonda Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog’ bor. Bobur milliy bog’I majmuasida “Bobur va jahon madaniyati muzeyi”, shoirning ramziy qabir- maqbarasi bunyod etildi. Shahar markazida va Bobur bog’idagi yodgorlik majmuida shoirga haykal o’rnatildi. Andijondagi markaziy ko’chalning biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog’iva ko’chaga, Andijon viloyati Xonobod shahridagi istirohat bog’iga Bobur nomi berildi. O’zFA ning Bobur nomidagi medali ta’sis etildi.

Bu kabi yuksak ehtirom va e’tibor bejiz emas. Muxtasar qilib aytganda, shoh Bobur qayta takrorlanmas tarixiy siymo, adolatli podshox, iste’dodli shoir, bugun va kelajak yoshlari uchun ideal shaxslardan biridir.

SAPAROV B.B.

*“Gumanitar fanlar” kafedrasida katta o’qituvchisi,
ISROILOV S.U.*

“Ipakchilik va tutchilik” fakulteti yetakchisi.

BIZ YOSHLAR TINCH VA FAROVON HAYOT TARAFDORIMIZ

Agar biz axil bo'lsak, el-yurt manfaatiyo'lidabir tan-u birjonbo'libyashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Islom Karimov.

Xalqimiz azaldan ezgulikka intilib yashaydi. Buyuk ajdodlarimiz ham ilm – marifat, yurt ravnaqi va tinchligi yo'lida o'z jonlarini fido qilishgan. Jasur va fidoyi bobolarimiz jasorati tufayli ham bugungi kunda ona vatanimiz mustaqil, hur O'zbekistonimiz gullab yashnamoqda. Ammo bu tinchligimiz-u farovonligimizga rahna solayotgan va o'z tasirini ko'rsatayotgan buzg'unchi shaxslar va guruhlar mavjud. Bunday „qora niyatli“ kimsalar nafaqat o'zi yashab turgan hudud balki butun dunyo fuqarolari uchun salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Jumladan endigina ilmning sir asrorlarini o'rganaman deb kollej, litsey, hamda oily ta'lim muassasalariga qadam qo'ygan yosh avlod ongida vatanga muxabbat tuyg'usini so'ndirib, turli xil aldov yo'llari bilan jaholat botqog'iga yetaklaydilar.

O'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida hech narsadan tab tortishmaydi. Biroq bu oson bo'lmaydi. O'zining shonli tarixiga ega, olamni lol qoldirib yashayotgan buguni va buyuk kelajagi bor o'zbek xalqi o'z farzandlarini o'zining kelajagini har bir yovuz kuchdan saqlay oladi.

Yosh avlodni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan odatlar, illatlar hamda har xil ma'naviy tahdidlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Jumladan, yosh bolalarning telefon va kompyuterda internet tarmog'idan noto'g'ri foydalangan holda har xil buzg'unchi oqimlarga, guruhlariga qo'shilib qolishi, natijada ular ongida

o'zbek mentalitetiga, milliy an'analimizga zid g'oyalar, qarashlar, tushunchalar paydo bo'lishi achinarli hol. Ular o'zlari bilmagan holda bu guruhlariga ko'r-ko'rona kirib qolganligi kabi asosiy maqsadi nima ekanligini ham bilishmaydi.

Buzg'unchi g'oya – bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni atroflicha tahlil qilgan holda, vayronkor g'oyalarni aholining turli qatlamlariga tasirini milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli fikrlar, mafkuraviy xurujlarni targ'ib qilish, fuqarolarimiz qalbidagi milliy tafakkur va sog'lom dunyo qarash asoslariga putur yetkazishdan iboratdir.

O'rta asrning 80-90 yillarida siyosiylashgan va jangovor tus olgan buzg'unchi g'oyalarga asoslangan aqidaparastlik, vahobiylik va fundamentalizm, diniy ekstremizm guruhining a'zolari mamlakatimizning Namangan, Toshkent, Sariosiyo, Yangiobod va boshqa hududlarida terrorchilik, talonchilik harakatlarini olib borganlar. Bu xunrezliklar juda ayanchli oqibatlariga olib kelgan. Kuchli portlashlar natijasida ulug'vor binolar, tabiat nematlari hisoblanmish dov-daraxtlar hamda oliy mavjudot insoniyatga juda kata zarar yetkazdi. Nafaqat jismoniy yoki moddiy balki ma'naviy hayotiga ham og'riqli zarba bo'ldi.

Hozirgi kunda ham bu g'alamis shaxslarning payi qirilmagan. Ular yer sharining turli burchaklarida kichik-kichik guruhlar tashkil qilgan holda manaviy qashshoq fuqarolarni o'z domiga tortmoqda. Shuni unutmasligimiz lozimki, bugungi kunda arziyas bo'lib ko'ringan kichik bir zarra bugungi kun shiddatidan

kuch olib atomga aylanishi va zarari hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Ammo jon kuyar fidoyi xalqimiz bu holatga befarq qaramaydilar.

Barchaga ma'lumki har bir davlat o'z tinchligini saqlash, xalqining farovon hayotini taminlash uchun harbiy kuch-qudratiga ishonadi va tayanadi. Yurtimiz farovonligini taminlash va ma'naviy salohiyati yuksak jamiyat barpo etish uchun muhtaram 1-prezidentimiz Islom Karimovning „G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat“ ibratli so'zlari asosiy shiorimiz bo'lmog'i darkor. Zero, jaholatga qarshi ma'rifat ila kurashmoq natijasi tarixdan hozirgi kunga qadar o'z tasdig'ini topmoqda.

O'zbek xalqi o'zining buguni va kelajagini o'ylab yashaydi. Kelajak bu yoshlar. Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib-o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish muqaddas yurtimiz hamda yoshlar oldidagi fuqarolik burchidir. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan tashkilot, talim muassasalarida mavzuga oid masalalarda tadbirlar, seminar-mashg'ulotlar bo'lib o'tmoqda. Shu o'rinda universitetimizda ham „Yoshlar buzg'unchi g'oyalarga qarshi“ mavzusida seminar-mashg'uloti o'tkazilganligi yorqin misoldir.

Irodasi mustahkam aql zakovatli, teran fikrlovchi O'zbekiston yoshlarining maqsadi aniq, orzusi bepoyondir. Ular o'zlari belgilab olgan maqsadlari yo'lida hech og'ishmay ulkan cho'qqini zabt etadilar. Biz yoshlar tinch va farovon hayot tarafdorimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Yuksak manaviyat yengilma skuch. I.A. Karimov. 2008-yil.

Dinshunoslik. A.Mo'minov, X.Yo'ldoshev. 2004-yil.

ABDULATIPOVA FOTIMA
Agrobiologiya fakulteti 1-10 guruh talabasi.

YANGILIKLAR

“O‘zbekiston “Veteran” jangchi fahriylari

2019 yil 2 fevralda, “O‘zbekiston “Veteran” jangchi fahriylar va nogironlar Birlashmasi tashkil etilganligining 25 yilligi”, 15 fevralda Afg‘onistonda halqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash harakatlarining tugatilganligiga 30 yil to‘lishi munosabati hamda “Afg‘on urushi qatnashchilari - II Jahon urushi qatnashchisiga tenglashtirilishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 252-sonli qarori ijrosini



taqdirlandilar. Fahriylarimizga musaffo osmon uchun minnatdorchilik tabriklagan holda kelgusi ishlarida omad yor bo‘lishini tilab qolamiz.

ta‘minlash maqsadida “Veteran” jangchi fahriy va nogironlari birlashmasi Toshkent shahar bo‘limi va Toshkent davlat agrar universiteti hamkorligida hozirda OTM sohasida faoliyat yuritayotgan urush qatnashchilari bo‘lgan fahriy jangchilarga, ularning fahrli va og‘ir xizmatni munosib o‘taganliklari, va hozirda ham o‘z xizmat vazifalarini sidqidildan amalga oshirib kelayotganliklarini inobatga olgan holda universitetimiz fahriy xodimlariga e‘tibor ko‘rsatish, ularni kelajak avlodni tarbiyalashda qo‘shayotgan ulkan xissalari, mehnatda va jamoat ishlarida faolliklari uchun - Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor, dotsent I.A.Israilov va universitet avtogaraj boshlig‘i A.Toshmuhamedovlar birlashma va agrar universiteti tomonidan esdalik sovg‘alar bilan bildiramiz va ularni yubiley bayramlari bilan

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETINING TERMIZ FILIALI YANGI BINOGA EGA BO‘LDI.

Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali talabalari uchun zamonaviy qulayliklarga va o‘quv-laboratoriya jihozlariga ega bo‘lgan ming o‘rinli yangi o‘quv binosi va 240 o‘ringa mo‘ljallangan zamonaviy yotoqxonasi qurib foydalanishga topshirildi.

Binoning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi Bahodir Po‘latov, professor-o‘qituvchilar, talabalar, ota-onalar, mahalla oqsoqollari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

36 milliard so‘m evaziga barpo etilgan ushbu oliy ta‘lim muassasasi termizlik talabalar uchun haqiqiy sovg‘a bo‘ldi.

Ma‘lumot uchun, Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filiali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli qarori asosida tashkil etilgan.

Filialda hozirda 2 ta fakultetda 13 ta ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha 722 nafar talaba tahsil olmoqda.



HAMKORLIK

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI AQSHNING NUFUZLI UNIVERSITETLARI BILAN HAMKORLIKNI KENGAYTIRMOQDA

Toshkent davlat agrar universiteti rektori, akademik Botirjon Sulaymonovning AQShga tashrifi davomida O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ta'lim sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Missisipi shtati universiteti va Toshkent davlat agrar universiteti o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik to'g'risida kelishuv imzolandi.



Endilikda O'zbekistonlik talabalar Missisipi shtati universitetining turli yo'nalishlari bo'yicha amaliyot o'tkazishlari, professor-o'qituvchilar esa AQShda malaka oshirishlari, shuningdek, AQShning yuqori malakali mutaxassislarini Toshkent davlat agrar universitetida o'quv jarayoniga jalb etish va ikki tomonlama diplom berish qo'shma dasturlarni joriy etish yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Botirjon Sulaymonov Missisipi shtatining Alkorn universiteti prezidenti D.Li va Shimoli-G'arbiy kollej prezidenti Sh.Makkey bilan uchrashdi. Uchrashuvlar davomida Toshkent davlat agrar universiteti hamda Shimoli-G'arbiy kollej va Alkorn universitetlari o'rtasida talabalar va professor-o'qituvchilar almashuvini amalga oshirish, ikki tomonlama diplom berish qo'shma dasturlarni joriy etish, qishloq xo'jaligi sohasidagi professor-o'qituvchilari ToshDAUda ma'ruzalar o'qishlarini, shu jumladan vebinarlarni joriy etishga kelishib olindi.

April oyida Missisipi shtati universiteti rahbariyati O'zbekistonga tashrif buyurishi amalga oshirishi rejalashtirildi. Ushbu tashrif davomida Toshkent davlat agrar universiteti hamda Missisipi shtatining Alkorn universiteti va Shimoli-G'arbiy kollej o'rtasida shartnoma va yo'l xaritalari imzolanishi kelishib olindi.



Konkuk universiteti bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi

Joriy yil 8 fevral kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston va Janubiy Koreya universitetlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida respublikamizga tashrif buyurgan Konkuk universiteti prezidenti Sangi Min tashrif buyurdi.



Delegatsiya tashrifidan asosiy maqsad O'zbekiston qishloq xo'jaligi va agrar oliy ta'limni rivojlanishi bilan yaqindan tanishish hamda ushbu sohalarda hamkorlikni kengaytirishdan iborat.

Toshkent davlat agrar universiteti Konkuk universiteti bilan 2015 yildan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. Shu davr mobaynida universitetning 10 dan ziyod talabalari Konkuk universiteti magistraturasini tamomlab keldi.

Konkuk universiteti Koreya Respublikasi oliy ta'lim muassasalari reytingida birinchi o'ntalikka, jahon reytingida esa kuchli 500 talikka kiradi.

Muzokaralarda professor-o'qituvchilarini malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, iqtidorli yoshlarni magistratura va doktoranturada o'qitish, hamkorlikda o'quv adabiyotlarini yaratish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish masalalari muhokama qilindi.

FANGA BAXSHIDA UMR!

Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik va botanika kafedrasida professori, O'zbekistonda introduksiya sohasining asoschisi, MDH davlatlari yirik botanik olimi, hurmatli ustoz, malakali pedagog, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi a'lochisi", "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari sovrindori biologiya fanlari doktori Igor Vladimirovich Belolipovni tavallud topganiga 80 yil, ilmiy pedagogik va ijtimoiy faoliyatiga 60 yil to'radi.

I.V.Belolipov 1939 yilda 20-fevralda Toshkent shahrida tug'ilgan 1961 yil Toshkent qishloq xo'jalik instituti (hozirgi Toshkent davlat agrar universiteti) O'rmon xo'jaligi fakultetini imtiyozli diplom bilan tamomladi. O'z mehnat faoliyatini O'zR FA Botanika bog'ida katta laborant, keyin aspirant va kichik ilmiy xodim lavozimlarida ishlab, 1967 yilda biologiya fanlari nomzodi, 1983 yilda "O'rta Osiyo florasidagi o'tli o'simliklar introduksiyasi" mavzusida olib borgan serqirra ilmiy tadqiqot ishlarini umumlashtirib, biologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. 1978 yildan boshlab, katta ilmiy xodim lavozimida ishladi. Respublikamiz florasining tabiiy vakillarini iqlimlashtirish asosida madaniy turlar sonini ko'paytirish, muhofaza qilish va saqlash borasidagi ilmiy tadqiqotlarni muhtaram ustoz Fedor Nikolayevich Rusanov bilan yaqindan hamkorlikda amagga oshirib bordi.

I.V.Belolipovning Toshkent qishloq xo'jaligi institutidagi ilmiy-pedagogik faoliyati 1985 yil Botanika kafedrasida mudirligidan, boshlandi, 1987-1988 yillar Universitetining sirtqi ta'lim fakulteti dekan muovuni, 1988-1991 yillar Meva-sabzavotchilik va o'rmon xo'jaligi fakultetida dekan, O'zR FA Botanika instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining ekspert guruhining a'zosi. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar qo'mitasi eksperti sifatida Respublikamiz oliy o'quv yurtlariga, ilmiy tadqiqot institutlariga, qishloq xo'jaligiga malakali mutaxassislar tayyorlashda faol qatnashib kelmoqda. Uning rahbarligida 4 ta fan nomzodi (Sobchak R.O., Begimqulov Sh.Sh., Samir Sayed El Ganayni, Imirsinova A.A.) va bitta fan doktori (Sheraliyev A.Sh., 2001) tayyorlangan bo'lib, ular O'zbekiston, Rossiya va Misr Arab Respublikasida jahon fanining rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Professor I.V.Belolipov tomonidan 250 dan ortiq ilmiy, o'quv-uslubiy, o'quv qo'llanma va darsliklari chop etilgan bo'lib, 200 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 1 ta patent, 2 ta monografiya, 4 ta darslik, 6 ta o'quv qo'llanma, 6 ta ma'ruza matnlari hamda 15 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar va bir qancha namunaviy dasturlardir.

Professor I.V.Belolipovning asosiy ilmiy izlanishlari O'zbekiston tabiiy florasida noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik turlarini saqlashga bag'ishlangan. U ilk bor O'zbekiston sharoitida yovvoyi holatda o'suvchi 12 ta asosiy o'simlik tiplarining intraduktсион xususiyatlarini o'rgangan. O'zbekiston tabiiy florasining intraduktсион imkoniyatlarini aniqlash uchun xizmat qiladigan ekologik-intraduktсион usullari ishlab chiqilgan va dunyo amaliyotida keng foydalanib kelinmoqda.

Professor I.V.Belolipov - Botanika sohasida ko'p qirrali va zahmatkash, talantli tadqiqotchi, qiziqishi beqiyos bo'lgan qomusiy olim. Uning ilmiy ishlari nafaqat O'zbekiston balki xorijda ham ma'lum. Ilmiy ijodining mahsuli Respublikamizda o'simliklarni iqlimlashtirish asosida ularning zahirasini ko'paytirish va muhofaza qilish bo'yicha chop etilgan O'zbekiston

Respublikasi "Qizil kitobi" (1984y., 1998y., 2009y.), "O'simliklar ekologiyasi va geografiyasi" (1987), "O'rta Osiyo tabiiy florasini o't o'simliklarining introduksiyasi" (1989 y.), "Rastitelniy mir Uzbekistana (1997y.), «Morfologiya rasteniy morfologiyasi» (2007 y.), "Phytochemicals; Aqing and Helth" (2008y.), "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" (2012y.), "Dikorastuyushiy lekarstvennie rasteniy Uzbekistana" (2012y.), "Medical Plants of Central Asian: Uzbekistan and Kirghizstan" (2013y.), "Botanikadan laboratoriya mashg'ulotlari" (2014y.), "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" (2018y.) qomusnomalarda o'z ifodasini topgan.

Professor I.V.Belolipov o'z ona tilini, ingiz tili bilan bir qatorda, o'zbek tilini ham mukammal o'rganib olgan. O'zbek tilida talabalarga muloqot, amaliyot, ma'ruza darslarini yuksak pedagogik mahorat bilan o'qitadi. U universitet professor o'qituvchilari va talabari orasida o'zining samimiyligi, yoshlarga nisbatan talabchanligi va mehribonligi, o'ta madaniyatligi kabi insoniy xislatlari tufayli chuqur xurmatga sazovor.

Professor I.V.Belolipov jaxon Botanka faniga qushgan hissasi AQSh, Angliya davlatlaridagi olimlar bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlaridagi o'z ifodasini topgan. U 1977 yilda "SSSR Apollon" xalqaro Sovet Amerika botaniklar ekspeditsiyasi tarkibida Kolorado, Bayoming, Yuta, Nyu Meksika shtatlaridagi Shimoliy Amerika florasini o'rganish bo'yicha O'rta Osiyo vakili sifatida, 1983 yilda Buyuk Britaniyaning Qirollik Jamiyati taklifiga asosan Angliya va Shotlandiyadagi Botanika bog'laridagi o'simliklarni ko'paytirish va iqlimlashtirish bo'yicha tavsiyalar bergan.

1992 yilda Angiya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlar uchun fermerlar tayyorlaydigan Glostershir bog'dorchilik, qishloq xo'jalik kollejidagi o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqarishda muataxassis sifatida qatnashgan.

1995-1999 yillarda Oksford universitetining O'simliklar to'g'risidagi bo'lim tashabbusi va taklifiga asosan Liverpool, Kembrij, Redding universitetlarida bo'lib, u yerda yetishtirilayotgan O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan tabiiy florasini vakillarini aniqlash va ularni yetishtirish texnologiyalariga tavsiyalar bergan.

2003-2006 yillar davomida Markaziy Osiyo bio xilma-xilligini o'rganish va ulardan yangi farmatsevtik vositalar yaratish bo'yicha Xalqaro loyixa-ICBJ da ilmiy ishlarga kordinatorlik qildi. U o'z ilmiy va pedagogik faoliyati davomida Respublikamizning taniqli buyuk botanik olimlari: Qodir Zokirov, Rudolf Vladimirovich Kamelin, Yevgeniy Petrovich Korovin, Viktor Petrovich Bochantsevning fondagi g'oyalarini davom ettirib kelmoqda. Salohiyatli olim hozirgi kunda ham yoshlarning dono maslahatchisi va g'amxo'r ustozidir. Respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi ko'p yillik xizmatlari, samarali ilmiy-pedagogik malakali kadrlar tayyorlashdagi fidokorona mehnatlari uchun YuNESKO ni "Inson va biosfera" dasturini, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda ToshDAU ning bir qancha faxriy yorliqlari, Xalq xo'jalik yutuqlari ko'rgazmasining kumush medali, 1999 yili "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, 2002 yil 26-avgustda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Do'stlik" va 2017 yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Mehnat shuhrati" ordenlari bilan mukofotlangan



TANLOV

ISTAK

Ota onasinquvonchin
Vataniningishonchi,
Jigarlarinsuyanchi,
Bolishingizshartbiling.

Oqimishlishifokor,
Bemorlargamadadkor,
O'zkasbigafidokor,
Bo'lishingizshartbiling.

Hamshiradavolovchi,
Tishsoglig'insaqlovchi,
Ko'llejshaninoqlovchi,
Bo'lishingizshartybiling.

VATANIM

Vatanifihorimo'zingg'ururim,
Tug'ilganmaskanimsajdagohimsan,
Haryurtdango'zalo'zingsururim,
Bobolarqo'nimtopganqarorgohimsan.

Birsiqimtuprig'ingoltindanqimmat,
Zilolchashmabulog'ingeruro'zibaxt,
Nomingko'kkako'tarishdilimdagiahd,
Osmoningmusaffosihatgohimsan,
Bobolarqo'nimtopganqarorgohimsan.

Vatanfarzandlaringpahlovono'g'lon,
Qizlarinshoira,o'g'lingmardposbon,
Temurshijoatiyashaydihamon.
Yovniyo'latmaganpanohkorimsan,
Bobolarqo'nimtopganqarorgohimsan.

Rahimova Mashhura.

Agrobiologiyafakulteti

1-11 guruhtalabasi

Toshkent davlat agrar universiteti Ijodkor yoshlar uchun yangi tanlov e'lon qiladi!

Bugun yurtimizda xalq ma'naviyatini shakllantirish, ijodkor va iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, jamiyatning har jabhasida faol, yetuk va malakali kadrlarni tayyorlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Kitob mutolaasi insonda fikr uyg'otadi, fikr mukammallashib g'oyani shakllantiradi, g'oya noodatiy holatni talab etsa kreativlik (ijodkorlik) bo'ladi, ana shu kreativlik amalga tadbiiq etilsa - innovatsiya yuzaga keladi. So'nggi o'n yillikda jamiyatimizning har bir sohasida innovatsiya muhim islohot bo'lib qoldi! Shuningdek, Toshkent davlat agrar universiteti talabalari orasidan ijodkor yoshlarni kashf qilish, yozuvchilik mahoratini shakllantirish, kitobxonlikni oshirish hamda o'zbek adabiyotida yangidan yangi asarlar yaratish uchun munosib hissa qo'shish maqsadida "Ijod zavqi" adabiyot tanlovini tashkil etish nazarda tutiladi. Mazkur tanlov yoshlarda vatanparvarlik g'oyalarini oshirish, ona yurtimiz baxt-u istiqboli yo'lida hamjihatlik ila kurashish, tinchlikni asrash, har bir sohada rivojlanishning yangi bosqichlariga munosabat mezonlari aks ettiriladi. Tanlovda universitetning talabalari qalamiga mansub she'riyat, proza, dramaturgiya asarlari qabul qilinadi.

Tanlov shartlari:

1. Tanlovga yuborilayotgan materiallar muallifi ko'rsatilgan holda 1,15 intervalda, 14 shriftda, Times New Roman, Word 2013 dasturida, imlo qoidalariga rioya etilgan holda bo'lishi lozim.

2. Bitta talabadan ko'pi bilan uchtagacha material qog'ozga chiqarilgan hamda elektron holatda universitetning Yoshlar ittifoqi kengashida qog'ozda chop etilgan hamda elektron holda qabul qilinadi.

Tanlov uchun yuborilgan materiallar mas'ul muharrirlar tomonidan tahrir etilib, eng munosiblari radio va saytda e'lon qilib boriladi. Tanlov so'nggida e'lon qilingan materiallar universitet fondidan kitob holda chop etiladi hamda faol ishtirokchilarga taqdim etiladi.

Ijod zavqi - ruhiy xotirjamlik va ko'ngil ehtiyoji bo'larkan, o'zida iste'dodi bor barcha yoshlarni tanlovda qatnashishga, ijod zavqini tarixga muhrlashga chorlab qolamiz!



«AGRONOM»
MUASSIS:
Toshkent Davlat
agrar
universiteti.

O'zbekiston yoshlar
ittifoqi Universitet
Kengashi.

Gazeta Toshkent viloyati
Matbuot va axborot
boshqarmasi tomonidan
19.10.2010 y.
№03-068 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

ISSN raqami 2181-7782.

Muharrir: D.I.ALIMKULOV
Musahhix: F.ABDURAXIMOVA
Tahrir hay'ati:
M.M.ADILOV, F.ASHUROVA,
Z.MUHIDOVA, M.MIRSULTONOV.

agronom_gazetasi@umail.uz
Tahririyat manzili: Toshkent vil.
Qibray t. Universitet ko'chasi, 2 uy
Gazeta TDAU Tahririyat-nashriyot bo'limida 500
nuxxada chop etildi.



Bosishga
topshirilgan vaqt
28-fevral 2019-yil.